



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No4(4)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 106 sahifa,
22-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Pedagog kadrlar tayyorlashda microteaching metodining tashkiliy asoslari va uni samarali qo'llash mexanizmlari.....	10
Abdiqayumova Malika	
Ijtimoiy pedagogik faoliyatning bolalarning moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni	14
Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi, Xudayberdiyeva Zilola Azamat qizi	
Talabalarning og'zaki nutqini interfaol usullar yordamida rivojlantirish	18
Atamirzayeva Ezoza	
English Language Barriers Among Rural Ecotourism Guides in Uzbekistan	22
Aminova Asilaxon Sobir qizi	
Совершенствование методов обучения студентов эффективному управлению временем на основе тайм-менеджмента.....	25
Уразова М. Б., Абатова У. Б.	
Zamonaviy ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va samaradorligi	30
Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik ahamiyati.....	33
Gaipova Akjunis Qayratovna	
Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini o'zi tashkil etish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.....	37
Alimov Bekzod Nematovich	
O'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanish tadbirlarini maktab darajasida boshqarishning integratsiyalashgan yondashuvi	41
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar	48
Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi	
Pedagogical Integration as a Factor of Humanization in Professional Teacher Education	53
Yusupova Mukhabbat Anatolyevna	
Yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishida etnik muhitning ta'siri.....	58
Erkinova Sevara Najmiddin qiz	
Innovative Approaches to Teaching English in Higher Education: a Methodological Study	61
Gulsara Khakimova	
Bo'lajak pedagoglarda kognitiv faollikni rivojlantirishda neyropedagogika asoslari.....	63
Hikmatova Jamila Fatox qizi	
Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarning eshituv idrokini rivojlantirish texnologiyalari.....	68
I. S. Xamrayeva, Nuriddinova Muxayyo Ishxodjayevna	
Badiiy matn asosida nutqiy ko'nikmalar va ijodiy tafakkur integratsiyasini ta'minlash metodikasi	73
Jo'rayeva Sevinch Abdialim qizi	
Etnopedagogik muhitda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish.....	77
Murodova Farangis G'anisherovna	
Malaka oshirish jarayonida muammoga asoslangan o'qitish vositasida MTT tarbiyachilarining 4K ko'nikmasini rivojlantirish texnologiyasi	81
Ravshanova Xafiza Komilovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xalq og'zaki ijodi vositalaridan (ertak, maqol, qo'shiq, afsona, doston va boshqalar) foydalanishning nazariy asoslari, xalqaro va milliy tajribasi	85
Tog'ayeva Munisa Muxammadiyevna	
Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish asosida kelajakdagi o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish	89
Tursunova Elmira Ulug'bekovna, Rayimova Mushtariy Raup qizi	
Sensor integratsiya autizm spektori buzilishi bo'lgan bolalarning xulq-atvor va hissiy holatiga ta'siri.....	91
Xamidova Muyassar Polsaidovna, Abdullayeva Muslima Shovkat qizi	



Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	96
Xoshimova Dilobar Kuchkarovna, Nortosheva Dildora Orif qizi, Avazmurodova Mehribon Sharif qizi	
Инновационная методика нравственного воспитания в начальных классах: подход межпредметной интеграции	101
Улугмурадова Шохсанам	

YOSHLARDA IQTISODIY TAFAKKUR SHAKLLANISHIDA ETNIK MUHITNING TA'SIRI

Erkinova Sevara Najmiddin qiz

Nizomiy nomidagi O'zMU mustaqil tadqiqodchisi

EMU University "Ijtimoiy fanlar kafedrası" psixologiya fanlari o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishiga etnik muhitning ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda oilaviy qadriyatlar, til muhiti, ta'lim sifati, gender me'yorlari, ijtimoiy ishtirok va moliyaviy ijtimoiylashuv jarayonlari asosiy omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Muammoning nazariy ildizlari o'zbek jadidlarining iqtisodiy-ma'rifiy qarashlari bilan bog'lanadi. Ayniqsa, Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdurauf Fitratning yosh avlodni ilm-hunar, kasb va iqtisodiy faollikka yo'naltirish haqidagi fikrlari bugungi davr uchun ham metodologik ahamiyatga egaligi ko'rsatib beriladi. Maqolada O'zbekiston va xalqaro manbalar asosida iqtisodiy tafakkur shakllanishiga oiladagi pul haqidagi muloqot, mustaqil qaror qabul qilish muhiti, ta'limga kirishdagi tenglik va ijtimoiy stereotiplarning ta'siri yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, etnik muhit iqtisodiy tafakkurni bevosita emas, balki oilaviy tarbiya, madaniy me'yorlar, til, ta'lim va ijtimoiy imkoniyatlar orqali bilvosita shakllantiradi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy tafakkur, etnik muhit, yoshlar, moliyaviy ijtimoiylashuv, oilaviy qadriyatlar, jadidlar, ta'lim, gender me'yorlari, ijtimoiy ishtirok, iqtisodiy qaror.

Abstract: This article examines the influence of the ethnic environment on the formation of economic thinking among young people. The study considers family values, language environment, quality of education, gender norms, social participation, and financial socialization as the main factors. The theoretical foundations of the issue are linked to the socio-economic and educational views of Uzbek Jadids. In particular, the ideas of Mahmudhoja Behbudi and Abdurauf Fitrat on directing the younger generation toward knowledge, professional skills, and economic activity are shown to remain methodologically relevant today. Based on Uzbek and international sources, the article highlights how family discussions about money, the environment for independent decision-making, equality in access to education, and social stereotypes affect the development of economic thinking. The study concludes that the ethnic environment shapes economic thinking not directly, but indirectly through family upbringing, cultural norms, language, education, and social opportunities.

Key words: economic thinking, ethnic environment, youth, financial socialization, family values, Jadids, education, gender norms, social participation, economic decision-making.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние этнической среды на формирование экономического мышления молодежи. В исследовании в качестве основных факторов рассматриваются семейные ценности, языковая среда, качество образования, гендерные нормы, социальное участие и процессы финансовой социализации. Теоретические корни проблемы связываются с экономико-просветительскими взглядами узбекских джадидов. В частности, показано, что идеи Махмудходжи Бехбуди и Абдурауфа Фитрата по направлению подрастающего поколения к науке, ремеслам и экономической активности имеют методологическое значение и для современности. На основе узбекистанских и международных источников освещается влияние семейных бесед о деньгах, среды самостоятельного принятия решений, равенства в доступе к образованию и социальных стереотипов на формирование экономического мышления. Согласно результатам исследования, этническая среда формирует экономическое мышление не напрямую, а косвенно – через семейное воспитание, культурные нормы, язык, образование и социальные возможности.

Ключевые слова: экономическое мышление, этническая среда, молодежь, финансовая социализация, семейные ценности, джадиды, образование, гендерные нормы, социальное участие, экономическое решение.



KIRISH

Yoshlarning iqtisodiy tafakkuri bugungi jamiyat taraqqiyotining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Iqtisodiy tafakkur deganda insonning mehnat, daromad, mulk, tejamkorlik, tadbirkorlik, risk, tanlov va kelajakni rejalash-tirishga oid qarashlari tushuniladi. Bu tafakkur shunchaki makroiqtisodiy bilim bilan emas, balki kundalik hayotdagi qarorlar, oiladagi iqtisodiy tarbiya va ijtimoiy muhit bilan shakllanadi. Shu ma'noda etnik muhit ham yoshlarning iqtisodiy tasavvurlari shakllanishida ahamiyatli omillardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Masalaning nazariy asoslari o'zbek jadidlarining qarashlarida ham uchraydi. Jadidlar yosh avlodni ilmi, hunarli va iqtisodiy faol shaxs sifatida tarbiyalashni millat taraqqiyotining sharti deb bilganlar. Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdurauf Fitratning iqtisodiy yuksalish, hunarmandchilik maktablari, dunyoviy ilm va kasbiy tayyor-garlik haqidagi qarashlari bugun ham dolzarbligini saqlab qolgan ^[1]. Shu jihatdan qaraganda, iqtisodiy tafakkur masalasi faqat iqtisod fanining emas, balki ma'rifat, tarbiya va ijtimoiylashuvning ham muhim tarkibiy qismidir.

Mavzuning dolzarbligi O'zbekistonning yosh demografik tarkibi bilan ham belgilanadi. UNICEF ma'lumoti-ga ko'ra, O'zbekistonda 30 yoshgacha bo'lganlar aholi tarkibining juda katta qismini tashkil etadi; shu sababli yoshlarning iqtisodiy qarashlari va iqtisodiy faolligi mamlakatning yaqin kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojla-nishiga bevosita ta'sir qiladi ^[2]. Global miqyosda esa yoshlar bandligi masalasi hanuz dolzarb: ILO hisobotiga ko'ra, 2023-yilda yoshlar ishsizlik darajasi 13 foiz bo'lgan, ishsiz yoshlar soni 64,9 millionga yetgan ^[5]. Bu holat yoshlarning iqtisodiy tafakkurini erta shakllantirish zaruratini kuchaytiradi.

O'zbekistonning ko'p millatli ijtimoiy makoni sharoitida etnik muhit masalasi alohida e'tibor talab qiladi. UNICEFning 2024-yilgi vaziyat tahlilida ayrim etnik guruhlar, jumladan tojik, rus, qoraqalpoq va lyuli/roma bolalari, ta'lim va ijtimoiy ishtirok nuqtayi nazaridan nisbatan zaif guruhlar sifatida qayd etilgan. Hisobotda ayrim guruhlar bo'yicha maktab qatnovi ko'rsatkichlari o'zbek bolalariga nisbatan pastroq ekani ham ko'rsatilgan ^[3].

Demak, etnik muhitni iqtisodiy tafakkurga ta'sir qiluvchi mustaqil omil sifatida emas, balki til, ta'lim, hududiy imkoniyat, oilaviy qadriyat va ijtimoiy stereotiplar bilan bog'liq murakkab ijtimoiy maydon sifatida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqola ikkilamchi tahlil asosida tayyorlandi. Unda O'zbekiston va xalqaro miqyosdagi rasmiy hisobotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy maqolalardan foydalanildi. Asosiy manbalar sifatida UNICEF Uzbekistan'ning 2020 va 2024-yillardagi hisobotlari, OECD'ning moliyaviy savodxonlik bo'yicha tahliliy mate-riali, ILO'ning yoshlar bandligi bo'yicha hisobotlari, shuningdek o'zbek olimlari tomonidan jadidlarning iqtisodiy qarashlariga bag'ishlangan maqolalar olindi ^[1, 4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va deskriptiv sharhlash usullaridan foydalanildi. Birinchidan, etnik muhitning iqtisodiy tafakkurga ta'siri oilaviy va madaniy ijtimoiylashuv nuqtayi nazaridan o'rganildi. Ikkinchidan, bu ta'sirning amaliy ko'rinishlari ta'lim, moliyaviy savodxonlik, mustaqil qaror qabul qilish va gender me'yorlari misolida tahlil qilindi. Uchinchi bosqichda esa O'zbekiston sharoitida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Iqtisodiy tafakkur shakllanishida oilaviy muhitning o'rni birlamchi hisoblanadi. Bola mehnatga munosabatni, pulning qadrini, tejamkorlikni va iste'mol madaniyatini avvalo oilada ko'radi. OECD tadqiqotiga ko'ra, qatnashgan mamlakatlarda kamida 75 foiz o'quvchi ota-onasi bilan pul masalalarini kamida oyiga bir marta muhokama qiladi. Bundan tashqari, pul haqidagi muntazam oilaviy muloqot moliyaviy savodxonlikning yuqoriroq natijalari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan ^[4]. Bu holat shuni anglatadiki, iqtisodiy tafakkur maktabdagi nazariy ta'limdan oldin oiladagi kundalik muloqotlar va amaliy kuzatuvlar orqali shakllanadi.

Etnik muhit aynan shu oilaviy ijtimoiylashuvning ichki mazmuniga ta'sir ko'rsatadi. Har bir madaniy muhitda pul, mehnat, kasb va tejamkorlikka oid o'ziga xos qarashlar mavjud bo'ladi. Ba'zi oilalarda "barqaror ish" tushunchasi birlamchi bo'lsa, boshqalarida tadbirkorlik, savdo yoki mustaqil daromad topish ko'proq qadrlanishi mumkin. Shu sababli etnik muhit iqtisodiy tafakkurni to'g'ridan to'g'ri emas, balki iqtisodiy xulq-atvor haqidagi oilaviy me'yorlar orqali shakllantiradi. Jadidlarning hunar o'rganish, dunyoviy bilim va iqtisodiy uyg'onish haqidagi qarashlari ham yoshlar tarbiyasida aynan shu yo'nalishni ilgari surgan ^[1].

Iqtisodiy tafakkurga ta'sir qiluvchi ikkinchi muhim omil - ta'lim va til muhiti. UNICEF hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda ayrim etnik guruhlar bo'yicha maktab qatnovi va ta'limiy natijalarda tafovutlar mavjud ^[3]. Ta'lim sifati va o'qib tushunish darajasi iqtisodiy qaror qabul qilish qobiliyatiga ham bevosita ta'sir qiladi. Chunki iqtisodiy tafakkur axborotni tushunish, solishtirish, tanlov qilish va uzoq muddatli oqibatlarni baholash ko'nikma-

lariga tayanadi. Agar yoshning ta'limga kirishi, tilda o'zlashtirishi yoki axborotga yetib borishi cheklangan bo'lsa, bu uning iqtisodiy dunyoqarashini ham toraytiradi.

Shuningdek, ijtimoiy me'yorlar va gender qarashlari ham iqtisodiy tafakkur shakllanishida muhim. UNICEFning O'zbekiston yoshlari haqidagi hisobotida ayrim hududlarda qizlar mehnati, "mos kasb", "tinch ish" kabi tasavvurlar oilaviy va ijtimoiy qarashlar bilan belgilanayotgani ko'rsatilgan ^[2]. Bunday stereotiplar yoshlarning iqtisodiy tasavvurini jinsga qarab farqlashtiradi: yigitlarda risk olish yoki tashqi bozor bilan bog'liq faoliyatga moyillik kuchliroq shakllansa, qizlarda xavfsizlik va ijtimoiy ma'qullangan yo'nalishlarga intilish ustun bo'lishi mumkin. Demak, etnik va madaniy muhit iqtisodiy tafakkurga gender me'yorlari orqali ham ta'sir qiladi.

Mustaqil fikrlash va ijtimoiy ishtirok ham iqtisodiy tafakkurning muhim tarkibiy qismidir. UNICEFning 2024-yilgi hisobotida an'anaviy ijtimoiy me'yorlar ayrim hollarda bo'ysunish va kattalarga ergashishni mustaqil fikr bildirishdan ustun qo'yishi qayd etilgan ^[3]. Bu esa iqtisodiy tafakkur uchun zarur bo'lgan tashabbuskorlik, muqobil tanlovlarni solishtirish va mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalarining sustlashishiga olib kelishi mumkin. Iqtisodiy tafakkur faqat bilim emas, balki erkin fikrlash madaniyatini ham talab qiladi. Shuning uchun yoshlar bilan ishlashda iqtisodiy savodxonlikni tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish tarbiyasi bilan bog'lab olib borish zarur.

Bu jarayonda davlat siyosati va institutlarning o'rni katta. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunida yoshlarni ijtimoiy shakllantirish, ularning intellektual, ijodiy va boshqa salohiyatini ro'yobga chiqarish davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilangan ^[6]. 2025-yilgacha mo'ljallangan konsepsiyada ham yoshlarning zamonaviy kasb va ko'nikmalarni egallashi, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda faol ishtirok etishi ustuvor vazifa sifatida ko'rsatilgan ^[7]. Bu esa iqtisodiy tafakkur shakllanishi masalasi individual emas, balki tizimli ijtimoiy vazifa ekanini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlarda iqtisodiy tafakkur shakllanishida etnik muhit muhim, biroq bilvosita omil hisoblanadi. U yoshlarning iqtisodiy qarashlariga asosan oilaviy tarbiya, pul haqidagi muloqot, til va ta'lim muhiti, gender me'yorlari, mustaqil fikrlash muhiti va ijtimoiy ishtirok imkoniyatlari orqali ta'sir ko'rsatadi. Shu bois etnik muhitni faqat "madaniy fon" sifatida emas, balki iqtisodiy ijtimoiylashuvning faol tarkibiy qismi sifatida ko'rish zarur.

Amaliy jihatdan:

- *Birinchi*dan, maktab va oliy ta'limda iqtisodiy savodxonlikni oilaviy va madaniy kontekst bilan bog'lagan dasturlarni kuchaytirish lozim.
- *Ikkinchi*dan, ko'p tilli va aralash hududlarda iqtisodiy tarbiya materiallarini tushunarli va moslashtirilgan shaklda yetkazish kerak.
- *Uchinchi*dan, qizlar va o'g'il bolalar iqtisodiy mustaqilligi bo'yicha stereotiplarni yumshatishga qaratilgan ma'rifiy ishlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq.
- *To'rtinchi*dan, yoshlarni iqtisodiy jihatdan faol, mustaqil fikrlaydigan va mas'uliyatli qaror qabul qiladigan shaxs sifatida tarbiyalashda jadidlarning ilm-hunar va iqtisodiy uyg'onish haqidagi qarashlaridan samarali foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hakimov N.H., Amridinova D.T. Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari // Falsafa-siyosat. 2022. №2. B. 78–79.
2. UNICEF. Youth of Uzbekistan: Challenges and Prospects. Tashkent, 2020. B. 4, 57–58.
3. UNICEF. Situation Analysis of Children and Adolescents in Uzbekistan. Tashkent, 2024. B. 72, 104–105.
4. OECD. Shaping Students' Financial Literacy: The Role of Parents and Socio-Economic Backgrounds. Paris, 2024. B. 2.
5. International Labour Organization. Global Employment Trends for Youth 2024: Executive Summary. Geneva, 2024. B. 1–2.
6. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-son Qonun, 14.09.2016. 3-modda.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23-son qarori. "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 18.01.2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.